

## SIZ NIMA DEB O'YLAYSIZ?

**Mansurova Feruza,**

Student of the 1<sup>st</sup> stage of the English language course at the Faculty of Foreign Languages of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

### **Anatatsiya**

Keyingi paytlarda yozuvchi va shoirlarga "Siz nima deb o'ylaysiz: yaxshi asarlar oz yozilyaptimi yo kitobxonlar saviyasi pasayib ketganmi" qabilidagi savollar tez-tez beriladigan bo'lib qoldi.

**Kalit sóz:** ijodkor, adabiyot asar, ijodkor

Albatta, bu kabi savollar o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Nega o'quvchi o'zi yaxshi bilgan, asarlari bois hurmat etadigan ijodkorlarni bir qaraganda oddiy, lekin qaltis savolga tutmoqda? Nega O'zbekistonda yiliga ming-minglab kitoblar nashr etilayotgan bir paytda nozikta' b kitobxon o'z ko'ngil qondira oladigan asar topa olmay, norozi bo'lmoqda? Xuddi shu savollarga javob toparmikanman, deya bir necha kitobxonga murojaat qildim. Aksariyati oliy ma'lumotli bo'lgan bu kishilardan o'zlari qaysi ijodkorlarning asarlarini suyib o'qishlarini so'raganimda qo'shiq yozuvchi bir necha shoir bilan kechinma-sarguzasht asarlari potirlab chiqib yotgan adibni tilga olishdi. Faqat bir suhbatdosh Abdulla Qodiriy, Cho'lponlarning asarlarini qayta-qayta o'qishini, keyingi yilda esa unga Erkin A'zamning "Shovqin" kitobi yoqqanligini ko'zlari porlay-porlay aytdi.

### **Bozor adabiyoti tantanasi boshlandimi?**

Hozir esa kitob nashr etish ham o'ziga xos biznesga aylandi. Yomg'irdan keyingi bemaza qo'ziqorindek soni ko'paygan noshiru nashriyotlar xizmatigizga hoziru nozir. Faqat cho'ntagingizda aqchangiz yoki saxovatli homiyigiz bo'lsa bas. Istanagiz kitobingizni bir kechadayoq yostiqdek qilib chop etib, qo'lingizga tutqazishadi. " Abdunabi Abdiyev Xuddi shu asnoda internetda qashqadaryolik ijodkor Abdunabi Abdiyevning "Mukofot uchun yoziladigan "asar"lar" maqolasini o'qib qoldim. Uning ayrim fikrlari keyingi paytlarda zud-zud takrorlanmoqda. Masalan, Abdunabi Abdiyev "Ilgarilari kitob chiqarish u yoqda tursin, she'r yoki hikoyangizni adabiy-badiiy gazeta-jurnallar sahifasidan o'rin olishi uchun ham ming bitta chig'iriqdan o'tardingiz. Yozganlaringiz Yozuvchilar uyushmasi maxsus kengashidan o'tsagina bosib chiqarilardi", deydi. Hozir bu muallif aytgan "ming bitta chig'iriq" yo'q. Abdunabi Abdiyevning fikricha "Hozir esa kitob nashr etish ham o'ziga xos biznesga aylandi. Yomg'irdan keyingi bemaza qo'ziqorindek soni ko'paygan noshiru nashriyotlar xizmatigizga hoziru nozir. Faqat cho'ntagingizda aqchangiz yoki saxovatli homiyigiz bo'lsa bas. Istanagiz kitobingizni bir

kechadayoq yostiqdek qilib chop etib, qo'lingizga tutqazishadi. Uni kimga sotish - bu endi o'zingizning muammongiz!" Bu muallif ijodkor deganda yosh kitobxonlar aksar holda maktabni bitirar-bitmas kitob chiqargan, "men ikkita, men uchta kitob chiqardim" deya og'zini to'ldirib gapirishdan hech tortinmaydigan yosh shoiralarni taniydigan bo'lib borayotganlaridan tashvishlanadi.

Ushbu urfga aylanib borayotgan holat faqat u emas, ko'pgina katta ijodkorlarni-da tashvishga solayotir. Iste'dodli ijodkor, O'zbekiston Xalq shoiri Xurshid Davron o'z saytida Abdunabi Abdiyevning "Mukofot uchun yoziladigan "asar"lar" maqolasidagi mavzu maqola yozilgan paytdayam, bugun ham va kelajakda ham dolzarb bo'lib qolishini ta'kidlaydi. Xurshid Davron "Adabiyotni o'smir qizlar ijodi, ularning havaskorona yozilgan she'ru-hikoyalari belgilay boshlagani meni anchadan buyon qiynab keladi. Yozuvchilar uyushmasi havaskorlar to'garagiga aylana boshlandimi, grafomaniya asl adabiyot bilan tenglashtirila boshlandimi, tamom - bu bozor adabiyotining tantana qila boshlaganidan dalolat. Bu yana, xuddi sho'rolar tuzumi paytida bo'lganidek, adabiyot siyosat quroliga aylanib borayotganidan dalolat. Adabiyot siyosiy kurashning oynasi bo'layotganidan emas, adabiyotni boshqarish siyosat tomonidan amalga oshirilayotganidan dalolat", deya kuyinadi.

Abdunabi Abdiyev fikricha esa, faqat yoshlar emas, balki kattalar orasida ham tezroq va ko'proq kitob chiqarish istagi kuchaygan.

"Yangi-yangi asarlar dunyoga kelishi kerak edi, lekin nashriyot va kitob savdosi mutasaddilari bozor, bozor tamoyili deb, foydani o'ylab, ma'naviy foydani unutib, adabiyot rivojining tub ildizlaridan biri – moddiy ta'minoti qirqilib qoldi. Yozuvchi – nashr – kitobxon silsilasiga putur yetdi. "

ay ekan, u hech qachon kuniga yaraydigan iste'dodsiz qolmaydi. Iste'dodlar tug'ilaveradi, lekin ularning chinakam iste'dod yoki dahlo san'atkor bo'lib yetishmoqlari uchun muhit muvofiqligi kerak. Misol uchun Navoiy yoki Pushkinning paydo bo'lishi dahlo va tarixiy zarurat uyg'unligi bilan belgilanadi. Boshqacha aytganda, Navoiy madaniyat va adabiyot olamida amalga oshirgan buyuk turkona ishlar tarix taqozo etgan pallada yuz berdi. Pushkin, Shekspir, Qodiriy, Cho'lponlar haqda ham shuni aytish mumkin. Xuddi shunday, garchi ayrimlarining yoshlari qirqu ellikni qoralab qolganiga qaramay, bugungi kunda ham nasr, ham nazm bobida yarq etib ko'zga tashlanib turgan iste'dodlar bor. Aynan ana o'shalar chinakam adabiyot yukini dast ko'tarib yelkalariga olishlari mumkin: nasrda Nazar Eshonqul, Isajon Sulton, Rahimjon Rahmat, Abduqayum Yo'ldosh kabi, nazmda Abduvali Qutbiddin, Halima Ahmedova, Faxriyor, Zebo Mirzo, Xosiyat Rustamova, Go'zal Begim, Mehrinoz Abbosova, adabiyotshunoslik ilmida Dilmurod Quronov, Bahodir Karim, Uzoq Jo'raqul, Sa'dullo Quronov singari adib, shoir va olimlar o'zbek adabiyoti va adabiyotshunosligida ko'p ishlarni amalga oshirishdi va yana ko'piga qodir, deb bilaman. Ularning asarlari bilan tanishar ekanman, o'zbek adabiyotining yangi ko'tarilish to'lqinini kutaman emas, o'z ko'zlarim bilan aniq-tiniq ko'raman ham".

O‘zbek matbuotida va internetda chiqayotgan o‘zbek adabiyoti borasidagi maqolalar, suhbatlar bilan tanishgan paytimda Ulug‘bek Hamdamning fikriga qo‘shiladiganlar oz emasligini ko‘rdim.

“Bugun jiddiy, oqni oq, qorani qora deb aytishga bilim, tafakkur kuchi va jasorati yetadigan adabiy tanqid har qachongidanda zarurroq ekan. Uning tushuntiruvchi, qarashlarimizni tiniqlashtiruvchi, adabiy-ma‘naviy o‘zagimizga ozuqa berguvchi, unga yangi ruh hadya etguvchi kuchiga jamiyatda katta ehtiyoj paydo bo‘lganiga ortiq shubha yo‘q. “

Abdunabi Abdiyev ham ayrim sermahsul ijodkorlar ko‘payayotganligidan xavotirlanib, ularni “Sariq matbuot adiblari” deb atashidan qat‘i nazar, haqiqiy kitobxonning haqiqiy badiiy asarni izlashini ta‘kidlaydi:

“Bir qalamkash do‘stim aytib qoldi:

-Haftalik ko‘ngilochar gazetalaridan biriga qissalarimni jo‘natgan edim. Tahririyatdagilardan “Asarlaringiz nihoyatda jiddiy ekan, ularni gazetxonlarimiz hazm etolmaydi” degan javobni oldim...

Qiziq, ruhiy drammatizmga boy asarlarni o‘zbek kitobxonni hazm etolmayaptimi yoki ko‘ngilochar gazeta “talablari”mi? Bunday gazetalarining vazifasi odamlarga oldi-qochdildan iborat sayoz bir narsalarni “asar” deb taqdim etishdangina iboratmi? O‘rni kelganda bir haqiqatni alohida ta‘kidlash lozim, kitobxondan ma‘lum darajadagi ruhiy tayyorgarlikni talab etadigan, falsafiy mushohadalarga boy asar muallifning mashaqqatli mehnati, botiniy emrinishlari evaziga dunyoga keladi. Bunday yozuvchilar ijodida sermahsullik bo‘lmaydi. Oz, lekin sozgina! Bugun esa o‘tirsaroman, tursarqissa, yursarhikoya yozadigan “sermahsul adib”lar paydo bo‘lyapti. Bir ko‘ngilochar (ruscha aytganda “bulvarnaya”) gazeta xodimining barmoq bilan sanarli muddatda o‘ndan ortiq qoramani sarguzasht-detektiv roman deb kitob holida chiqarganini ko‘rdim. Bunga endi nima deysiz!”

Ulug‘bek Hamdam nasr va nazmda birday samarali qalam tebratishi bilan birga badiiy ijod namunalarini sinchiklab o‘rganib, ilmiy tahlil qilib bermoqda. Yaqinda uning “Yangi o‘zbek she‘riyati” degan kitobi bosmadan chiqdi va adabiy doirada katta qiziqish uyg‘otdi.

Ulug‘bek Hamdamning fikricha zamonaviy o‘zbek she‘riyati (bu o‘rinda 1960 yillardan to hozirgi kungacha nazarda tutilmoqda) dunyoning istalgan yuksak she‘riyati bilan bellasha oladi. Lekin o‘zbek nasridan adabiyotshunosning ko‘ngli to‘lmaydi.” Adiblar, eng avvalo, adabiyotshunoslar va “Qizil kitob”ga kiritilishiga bir bahya qolgan munaqqidlar faqat besh-o‘n iste‘dodli yozuvchi kitoblarini tahlilu madh etish bilangina shug‘ullanmay (hatto asl adabiyotni targ‘ib qilish ham saviyasizlikka nisbatan kurash bo‘lgan taqdirdayam), adabiyotda paydo bo‘layotgan har qanday qashshoq asarga xolis baho berishlari, ularning adabiyotga, kitobxonlikka ko‘rsatayotgan zarari haqida haqqoniy fikru mulohazalarini aytishlari shart “Xurshid Davron: “Nasr haqida bu gapni aytolmayman. Chunki o‘zbek nacri Qodiriy va Cho‘lpondan juda katta potentsial bilan boshlanishi hamono bir xillikka yuz tutdi. Albatta,” Sarob”, “Qutlug‘ qon”, “Ulug‘bek xazinasi” kabi qator yaxshi romanlar yozildi.

Biroq ularning bari o'sha yuqoridagi ikkita gigant yozuvchi yaratgan nasriy yo'llar an'anasi doirasida edi. Shuning uchun ham nasrda yaxshi asarlarning soni oz. Nihoyat, 80-yillardan e'tiboran o'zbek nasri chinakam yangilanishlar pallasiga kirdi. Va istiqloq davrida u o'zligini to'la namoyon etishga kirishdi. Bugun o'zbek nasrida tom ma'noda burilish hodisasi kechayapti. Nazmda bu 60 va 70-yillar avlodi she'riyatida yuz bergan edi".

Adabiyotshunosning bu fikrini quvvatlar ekanman, ayni saksoninchi yillar mahsuli bo'lgan Murod Muhammad Do'stning "Lolazor" romanini, Erkin A'zam, Tog'ay Murod, Olim Otaxon, Xurshid Do'stmuhammad, Nurulla Otaxon, Xayriddin Sultonov, Sobir O'nar, Abulqosim Mamarasulov, Shodiqul Hamroyev kabi ijodkorlarning qissa va hikoyalari eslayman. Bu mualliflarning asarlari bosiladigan "Sharq yulduzi", "Yoshlik", "Yosh kuch" majallalari, "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" haftaligi garchi o'sha paytlar yuz ming va undan ancha ko'p nusxada chiqsa-da, talash bo'lib ketardi. Adabiy tanqidchiga bilim va tafakkur yetarli mi? Adabiy doiralarda "Nega ayrim hollarda chinakam asarlar chetda qolib, bemaza qovun urug'iga o'xshash potirlab chiqayotgan kitoblar maqталadi?" degan savol tez-tez takrorlanadigan bo'lib qoldi.

Ulug'bek Hamdamning aytishicha buning javobi savolning o'zidanda achchiqroqdir. "Chunki bunday hol afsuski, hozirda butun dunyo san'atu adabiyotida bo'lganidek, o'zbek adabiyoti va ilmida ham mavjud. Demak, bitta gapni alohida urg'u bilan aytish lozimga o'xshaydi: bugun jiddiy, oqni oq, qorani qora deb aytishga bilim, tafakkur kuchi va jasorati yetadigan adabiy tanqid har qachongidanda zarurroq ekan. Uning tushuntiruvchi, qarashlarimizni tiniqlashtiruvchi, adabiy-ma'naviy o'zagimizga ozuqa berguvchi, unga yangi ruh hadya etguvchi kuchiga jamiyatda katta ehtiyoj paydo bo'lganiga ortiq shubha yo'q". Ulug'bek Hamdam adabiy tanqididagi xolislik mezonini buzilsa, tahlil etilayotgan asarga hech qachon to'g'ri baho berib bo'lmazligi isbotlanganini aytadi.

"Shu ma'noda badiiy asar qaysi mezonlardan turib baholanayapti: uning sifati, yangiligi, ilmiyligidan tashqari tanqidchining XOLISLIK darajasi qay ahvolda kabi haqli savollar tug'iladi. Chunki, ko'pincha, badiiy asarlar baholangan tanqidiy maqola, ilmiy tadqiqot va yoki taqrizni o'qib, o'zingga o'zing savol berib qolasan kishi: qaysi biri past, qaysi biri o'rtayu qaysisi baland asar va nima uchun?.. Aksariyat hollarda hammasi birdek durdona o'laroq taqdim etiladi. (Va yoki ko'r-ko'rona "urib" tashlanadi). Nazarimda bu o'rinda tanqidchilarimiz o'quvchilik muhabbati (yoki nafrati) izhoridan olim-mutaxassis munosabatini bildirish darajasiga o'sib borolmayapti. Ya'ni u o'zining u yoki bu asarga yoki uning muallifiga bo'lgan simpatiya (yoki antipatiya)sini olimning qarashi deb o'ylayapti". Adib va adabiyotshunos saviyasi yetarli bo'lmagan munaqqiddan teran tahlil kutish mumkin emas, deydi: "Tanish-bilishchilik, mahalliychilik degan illatlar ham badiiy asarni to'g'ri va halol baholash yo'lida to'siq bo'lmazligi kerak. Baland saviyadagi asar o'z vaqtida haqqoniy bahosini olishi juda-juda zarur. Yanada muhimi, baland asarni munosib

tahlil qilish uchun tanqidchining o‘zi baland saviyaga ega bo‘lishi shart... Yuqoridagi nuqsonlar bartaraf etilgandagina tanqidchilik o‘z vazifasini bajarishga kirishadi.”

“Haqiqatan ham adabiyotshunoslar sustkashlik qildilar va qilayotirlar ham. Bu ham aylanib kelib, moddiy sabablarga taqaladi. Badiiy adabiyotning sara namunalari sotilmasa, gazeta-jurnallar ko‘cha matbuotiga aylansa, adabiy tanqidchi yoki adabiyotshunosning asarlari qayerda bosiladi, qancha tarqaladi, ularni qancha odam o‘qiydi va muallif oylab o‘tirib yozgan maqolasiga qancha qalam haqi oladi? “

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.Xurshid Davron “Maqolalar”
2. [https://t.me/Jaloliddin\\_rumiy\\_aforizmlari\\_uz](https://t.me/Jaloliddin_rumiy_aforizmlari_uz)